

O'LIM JAZOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7824936>

Razzokov Xusan Mirzamashrapovich
Toshkent viloyati yuridik texnikumi
Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: *Maqolada o'lim jazosi va bu boradagi berilgan takliflar, o'zgarishlar, referendumlar haqida yozilgan.*

Kalit So'zlar: *sud, qotillik, jazo, referendum, jinoyatlar, jinsiy zo'ravonlik, terrorizm.*

АННОТАЦИЯ: *Статья написана о смертной казни и предложениях, изменениях и референдумах по этому поводу.*

Ключевые Слова: *суд, убийство, наказание, референдум, преступления, сексуальное насилие, терроризм.*

Annotation: *The article is written about the death penalty and the proposals, changes, and referendums in this regard.*

Key Words: *trial, murder, punishment, referendum, crimes, sexual violence, terrorism.*

KIRISH: O'lim jazosi — sud tomonidan qotillik deb ataladigan amaldagi yoki taxmin qilingan jinoyat uchun jazo sifatida shaxsni qasddan o'ldirish bo'yicha davlat tomonidan tasdiqlangan oliy jinoiy jazo chorasi. Jinoyatchini shunday tarzda jazolashni buyurgan hukm o'lim hukmi, hukmni bajarish harakati esa qatl deb nomlanadi. O'lim jazosi bilan jazolanadigan jinoyatlarga odatda qotillik, ommaviy qotillik, zo'rlashning og'irlashtirilgan holatlari (ko'pincha bolalarni o'z ichiga oladi) kabi shaxsga qarshi og'ir jinoyatlar; jinsiy zo'ravonlik, terrorizm, samolyotlarni o'g'irlash, urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsid, shuningdek, davlat to'ntarishiga urinish, davlatga xiyonat kabi davlatga qarshi jinoyatlar; josuslik, fitna va qaroqchilik kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda, giyohvand moddalar savdosi va giyohvand moddalarni saqlashdan tashqari, takroran jinoyat sodir etish, og'irlashtirilgan talonchilik va odam o'g'irlash kabi jinoyatlar ham jiddiy jinoyat hisoblanadi. Jazoning favqulodda turi sifatida faqat alohida og'ir, inson hayotiga qasd qiladigan jinoyatlar uchun belgilanishi mumkin.

ASOSIY QISM: Etimologik nuqtai nazardan, kapital atamasi (lotincha kapitalis orqali caput, „bosh“ so'zidan olingan) boshni tanadan judo qilish yo'li bilan qatl qilishni anglatadi, ammo qatl qilish ko'plab usullar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, osib qo'yish, otish, o'limga olib keladigan ineksiya, toshbo'ron qilish, elektr toki urishi va zaharli gazdan foydalanish. O'lim jazosi hozirda 58 mamlakatda bekor qilingan, 31 davlat qonunida ko'zda tutilgan bo'lsada, keyingi 15 yil davomida ularning aksariyatida hech kim bu jazoga hukm qilinmagan. O'lim jazosi 77

mamlakatda, shu jumladan, Xitoy, Eron, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va AQShning 38 shtatida qo'llanmoqda. Pokiston, Kongo, Nigeriya va Yamanda voyaga yetmaganlar ham O'lim jazosiga hukm etilishi mumkin.

O'zbekistonda O'lim jazosini jazolash tizimidan butkul chiqarib tashlash choralari ko'rilmoqda. Mustaqillikdan so'ng o'tgan vaqt mobaynida O'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi. Ayni paytda O'zbekiston qonunchiligida faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchungina O'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan, xotin-qizlarga, voyaga yetmaganlar va 60 yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan O'lim jazosi qo'llanilishi man etilgan. „O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2005-yil 1 avgust)ga ko'ra, 2008-yilning 1-yanvaridan O'lim jazosi o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu farmon insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga mosdir.

O'zbekistondagi o'lim jazosi boyicha o'tkazilgan referendumlar.

O'zbekistonda o'lim jazosini tiklash taklif qilinmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar bo'yicha fuqarolardan yo'llangan takliflardan birida so'z boradi. Anonim murojaatchi yo'llagan taklifda ayolni o'ldirgan har qanday shaxsni o'lim jazosiga hukm qilish taklif qilingan. Shuningdek, qurbon bo'lgan ayolning voyaga yetmagan bolalari o'n sakkiz yoshga yetguniga qadar ta'minoti jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi ham nazarda tutilgan.

Bildirilgan takliflar orasida korrupsion jinoyatlar uchun ham o'lim jazosini joriy etish masalasi ham o'rta tashlangan. O'zbekistonda 2008 yilgacha o'lim jazosi bo'lgan. Prezident Islom Karimov tomonidan 2005 yil 1 avgust kuni imzolangan „O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida“gi farmoni bilan 2008 yilning 1 yanvardan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinib, uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etilgan.

Umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan tayinlanishi mumkin.

Jinoyat sodir etganlik uchun umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoni maxsus tartibli jazo ijro etiladigan ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'taydilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgan paytda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'lim jazosini nazarda tutuvchi 30 dan ortiq moddalardan iborat edi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yilgi Jinoyat kodeksida bunday moddalar soni 13, 1998 yilda 8, 2001 yilda esa 4 tagacha kamaytirildi. 2003 yilda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga

oshirilgandan so'ng, faqat ikki turdagi jinoyat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutiladi.

So'nggi yillarda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, sudlar to'g'risidagi, prokuratura to'g'risidagi qonunlarga, boshqa bir qancha qonun hujjatlariga muvofiq jinoyatlarning tasniflanishi o'zgartirildi, o'ta og'ir jinoyatlar jumlasiga kiritilgan jinoyatlar ro'yxati kamaytirildi, sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlari, yarashuv instituti joriy etildi. Jinoiy jazolar tizimini liberallashtirishga qaratilgan boshqa bir qancha dasturiy chora-tadbirlar qabul qilindi.

Jinoyatga oid siyosatda, huquqni qo'llash amaliyotidagi tub o'zgarishlar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, kriminogen vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'lim jazosini qo'llash sohasining bosqichma-bosqich kamayib borayotganligi O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan jarayonlarning muhim yo'nalishi bo'ldi. Mamlakat mustaqillikka erishgan paytda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'lim jazosini nazarda tutuvchi 30 dan ortiq moddalardan iborat edi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yilgi Jinoyat kodeksida bunday moddalar soni 13, 1998-yilda 8, 2001-yilda esa 4 tagacha kamaytirildi. Hozirgi vaqtda, 2003-yilda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng, faqat ikki turdagi jinoyat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси [Электрон манба]. Кириш йўли: <https://lex.uz/docs/111189> (Мурожаат қилинган сана: 09.11.2021)

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1сон қарори [Электрон манба]. Кириш йўли: <https://lex.uz/docs/1455976> (Мурожаат қилинган сана: 21.11.2020).

3. Бирюкова Е.А. Наказание в виде ограничения свободы: законодательство и практика назначения и исполнения // Бюллетень науки и практики — Bulletin of Science and Practice научный журнал (scientific journal). — Т. 4. — №5. 2018, — С.

4. Жаббарбеменов Р. Жазонинг профилактик функцияси ва уни амалга ошириш механизми: Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. — Т., 2004. — Б. 3.

5. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. – Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б.

6. Колбасова Е.В. Правовое регулирование исполнения наказания в виде ограничения свободы: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2016. – С. 39.

7. Комбаров Р.В. Обязанности, являющиеся обязательными к установлению при назначении наказания в виде ограничения свободы // Пробелы в Российском законодательстве / Международный юридический журнал. – М., 2012. – №1. – С.

8. Комбаров Р.В. Современные проблемы применения наказания в виде ограничения свободы // Вестник уголовно-исполнительной системы № 8/2019. – С